

**INGLIZ VA O'ZBEK TILIDAGI IBORALARNING
MA'NODOSHLIGI**

Shodmonova Go'zaloy Muhammadbobirovna

Olot tuman ixtisoslashtirilgan maktab-internati 11-sinf o'quvchisi

Haqqiyeva O'g'ilnor Rashidovna

Olot tuman ixtisoslashtirilgan maktab-internati ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillarida ishlatiladigan iboralar va frazeologik birikmalarning semantik o'xshashligi, ma'nodoshligi va ularning qiyosiy tahlilini o'rganishni nazarda tutadi. Tadqiqot doirasida ikkala tilning frazeologik boyligi tahlil qilinadi, turli madaniy va lingvistik kontekstlarda iboralarning qo'llanilishiga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: Frazeologik birikmalar, iboralarning ma'nodoshligi, lingvistik tahlil, frazeologik ekvivalentlik, semantik o'xshashlik.

Kirish: Ingliz va o'zbek frazeologik birliklarini o'rganish insonda madaniy tushuncha uyg'otadi. Maqollar, iboralar kabi frazeologik birliklar o'zi mansub bo'lgan millatning madaniyatini o'zida aks ettirganligi sababli ingliz va o'zbek frazeologiyasini tahlil qilish va qiyoslash har ikkala millatning madaniyati, dunyoqarashlari haqida tushuncha berishga xizmat qiladi. Bundan tashqari ikkala tildagi frazeologik nozikliklarni bilish insonning muloqot qilish qobiliyatini oshiradi va frazeologik birliklarning asosiy qismi ko'chma ma'noda bo'lganligi sababli ularning o'xshash va farqli jihatini o'rganish muloqotdagi ehtimoliy muammolarning oldini olishga yordam beradi. Shu sababli, bu mavzuni o'rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy jihatdan ham dolzarbdir. Frazeologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, tilning frazeologik birliklari, ya'ni iboralar, maqollar, matallar va boshqa turg'un birikmalarni o'rganadi. Frazeologiya asosiy maqsadlaridan biri nutqda avvaldan tayyor bo'lgan turg'un birikmalarni avvaldan tayyor bo'lmagan so'z birikmalaridan ajrata bilishdir. Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog'i



sifatida XX asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo'lgan va keyinchalik o'zbek tilshunosligida ham rivojlangan. O'zbek tilshunosligida frazeologiya sohasidagi tadqiqotlar 1950-yillardan boshlangan. Shu kungacha frazeologizmlar turli jihatlardan o'rganilgan va bir necha lug'atlar tuzilgan. Sh. Rahmatullayev, B. Yo'ldoshev, A. Mamatov kabi olimlar bu sohada muhim ishlar olib borganlar.

Asosiy qism. O'zbek tilidagi frazeologik birliklarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalarga – frazeologizmlar, ya'ni iboralar deyiladi.

Iboralarning o'ziga xos xususiyatlari:

1. Iboralar bir so'roqqa javob bo'ladi. Masalan: *Ko'ngli ochiq-qanday?*
2. Bir gap bo'lagi vazifasida keladi. Masalan: *Ko'ngli ochiq odam- aniqlovchi*
3. Bitta umumiy ma'no beradi. Masalan: *Ko'ngli ochiq- xususiyat, bitta belgi.*
4. Iboralar ham xuddi so'z kabi shakl ma'no butunligiga ega.
5. So'zning shakliy tomoni-tovush, iboraning shakliy tomoni- so'z.

O'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar (idiomalar) ko'plab o'xshashlik va farqlarga ega. Bu birliklar tilning boyligini va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Har ikkala tilda ham frazeologik birliklar ko'pincha metaforik ma'noga ega. Masalan, ingliz tilidagi *“Open mind”* (turli fikrlar va qarashlarga nisbatan ochiq fikrli) va o'zbek tilidagi *“Oq ko'ngil”* iboralari o'xshash ma'noni ifodalaydi .

Ingliz tilidagi bu ibora dunyoqarashi keng bo'lgan insonlarga nisbatan ishlatiladi. O'zbek tilida esa Oqko'ngil(lik) – yumshoq ko'ngillik, rahmdillik, ko'ngilchanlik mazmunini anglatadigan tushuncha. Oqko'ngillik kishilardagi eng yaxshi ijobiy xislatlarni ifodalaydi. Masalan, Said Ahmadning *“Ufq”* romanida Jannat xola juda ochiq ko'ngil inson sifatida tasvirlanadi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi *“tongue-til”* komponentli iboralar madaniyatni ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Masalan, ingliz tilidagi *“hold your tongue”* (tilini tiyish) iborasi va o'zbek tilidagi *“tilini tiyib turmoq”* iborasi o'xshash bo'lsa-



da, har bir madaniyatda bu iboralar turli kontekstlarda qo'llaniladi. Ingliz tilidagi *"hold your tongue"* iborasi odatda salbiy ohangga ega bo'lib, birovning o'rinsiz joyda gapirganini to'xtatish ma'nosida ishlatiladi. Bu ibora asosan jiddiy vaziyatlarda, rasmiy yoki nizoli suhbatlarda qo'llanadi. Misol uchun, bu ibora birovni mulohaza qilishga yoki ortiqcha gaplarni to'xtatishga undaydi. Ingliz madaniyatida ko'pincha bunday iboralar ogohlantirish xarakteriga ega bo'lib, gapiruvchining bevosita keskinlikka to'la his-tuyg'ularini aks ettiradi.

O'zbek tilidagi *"tilini tiyib turmoq"* iborasi esa, ko'proq hurmat va odob me'yorlariga asoslangan. O'zbek madaniyatida gapirish odobi va kattalarga hurmatga katta ahamiyat beriladi. Shuning uchun bu ibora o'zaro hurmat, muloyimlik va ehtiromni ifodalaydi. Bundan tashqari, bu ibora og'irroq suhbatlarda ko'proq katta yoshlilarga hurmat ko'rsatishni ta'kidlab qo'llaniladi. O'zbek madaniyatida odamlar o'z so'zlarini boshqarishda odobga katta e'tibor berishadi, va *"tilini tiyib turmoq"* iborasi ko'pincha ijtimoiy qoidalarga rioya qilish, jamiyatda to'g'ri muomala qilish bilan bog'liq. Ikkala ibora ham gapirmaslikka chaqiradi, lekin ular turli madaniy me'yor va qadriyatlarni aks ettiradi. Inglizcha ibora ko'proq ogohlantirish xarakteriga ega bo'lsa, o'zbekcha ibora hurmat va odobni ifodalaydi.

Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarning shakllanishi til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikning natijasidir. Har ikki til frazeologiyasining shakllanishida lingvistik tamoyillar va metaforik obrazlar katta ahamiyatga ega. Bu tilning o'ziga xosligini ko'rsatadi va madaniy o'ziga xosliklarni lingvistik vositalar orqali aks ettiradi. Masalan, ingliz tilidagi *"sharp tongue"* va o'zbek tilidagi *"tili o'tkir"* iboralari, har ikkisi ham kimningdir tanqidiy, qattiq va ba'zan shafqatsiz gapirishini ifodalaydi. Ikkala ibora ham tanqidiy fikrning kuchini va tinglovchiga ta'sirini ko'rsatadi. Ingliz madaniyatida *"sharp tongue"* odatda salbiy ohangga ega bo'lib, kimningdir achchiq, kinoyali va zararli tarzda gapirishini bildiradi: *"You are a cruel, hardened, selfish wretch!" Heathcliff exclaimed, his sharp tongue cutting through the silence. "I shall never forgive you for what you have done. You deserve no sympathy."* (E.Brontë. Wuthering Heights.) O'zbek madaniyatida esa *"tili o'tkir"* iborasi tanqidni ifodalasa-da, bunda gaplarning mantiqiyliги va lo'ndaligi ham katta



ahamiyatga ega: *“Gapingni bilib gapir, hushyorroq muomala qil. Ko‘ngli nozik, tili o‘tkir – bir so‘z bilan umidingni shart kesib qo‘yishi mumkin.”* Bu iboralarda o‘zaro farq shundan iboratki, ingliz tilida ko‘proq salbiy baho bilan ishlatiladi, o‘zbek tilida esa tanqidiy gapiruvchi shaxs fikrning to‘g‘riligi va asosli bo‘lishi ijobiy qabul qilinishi mumkin. Bu iboraga ko‘proq *“tili zahar”* iborasi ekvivalent bo‘lishi mumkin. Bu ibora asosan ko‘pincha og‘zaki nutqda va adabiyotda ayollarga nisbatan ishlatiladi. Bu ibora keskin, tanqidiy va achchiq gapiradigan insonlarni, asosan ayollarni tasvirlash uchun qo‘llaniladi. Bunday ifoda, odatda, odamlarning so‘zlari orqali boshqalarga ruhiy zarar yetkazadigan, gaplari bilan keskin ta’sir o‘tkazadigan xatti-harakatlarni ifodalaydi. O‘zbek madaniyatida, an’anaviy oilaviy va ijtimoiy hayotda, muloyimlik va yumshoq gapirish qadriyatlari yuqori baholanadi. Shu sababli *“tili zahar”* iborasi salbiy konnotatsiyaga ega bo‘lib, odatda, ayollarning keskin gapirishi madaniy jihatdan yomon qabul qilinadi. Milliy mentalitetni aks ettiruvchi frazeologizmlarning tahlili orqali bu til va madaniyatning o‘ziga xos jihatlarini aniqlash mumkin. Har bir xalqning lingvistik obrazlari ularning dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlarini ifodalaydi.

Shunindek, ingliz tilida *“dine with Duke Humphrey”* turg‘un iborasi mavjud. U *“tushliksiz qolish, tushlikdan, ya’ni tamaddi qilib olishdan mahrum bo‘lish”* mazmunini anglatadi. Mazkur fe’lli iboraning kelib chiqishida o‘ziga xos tarixiy omillar rol o‘ynagan. London cherkovlaridan biridan o‘sha joydagi qashshoq va gadoylar tamaddi qilishga biror narsa berishlarini so‘rashadi. Ammo ular “Yo‘q” javobini oladi. Ya’ni yegulik so‘raganlar och qoladi. Mana shu cherkovga gersog Hemfri ko‘milgan bo‘ladi. Shu bois gersog Hemfridan ovqat so‘rash aslida ovqatsiz qolish mazmunini berganligi sababli idioma tarjimasi *“och qolish, tushliksiz qolish”* mazmunida qo‘llanishga asos bo‘lgan. Shuningdek, *“cut off with a shilling”* iborasi *“merossiz qolish, merosdan mahrum bo‘lish”* mazmunini anglatadi. Uning etimologiyasi zahirida ham o‘ziga xos tarixiy-ijtimoiy holat va vaziyatlar mavjud. Ingliz yurisprudensiyasiga ko‘ra agar ota o‘z farzandini merosdan mahrum qilmoqchi bo‘lsa-yu, masalan, o‘z o‘g‘liga meros qoldirmasa, bunday odamning vafotidan so‘ng o‘g‘il o‘zining ota merosiga bo‘lgan huquqini sud orqali tiklab olishi mumkin. Agar



ota haqiqatan ham o'z o'g'lini merosdan mahrum qilmoqchi bo'lsa, u o'g'liga rasmiy "bir shilling" vasiyat qiladi. Ya'ni huquqiy jihatdan o'g'il meros olgan bo'ladi. Shundan so'ng o'g'il ota vafotidan so'ng katta merosga da'vogar bo'la olmaydi. Shunga ko'ra idiomani tarjimasi "*merosdan mahrum bo'lish, merossiz qolish*" mazmunini anglatadi.

Ingliz frazeologiyasining asosiy xususiyatlaridan yana biri uning majoziy ma'nosidir. Ko'plab frazeologik birliklar to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmasdan, kengroq kontekstda tushuniladi. Masalan, "*spill the beans*" (*sirni oshkor qilish*) iborasi so'zma-so'z tarjima qilinsa, uning asl ma'nosi yo'qoladi. Ushbu majoziy qo'llanishlar nutqni ifodali va jonli qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, o'zbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklarni tadqiq qilish ularning lingvistik va madaniy xususiyatlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot ham til o'rganish va madaniyatlararo muloqotda yangi imkoniyatlar ochishga yordam beradi va kelajakda yanada chuqurroq tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Baker, Mona. In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge, 1992.
2. Mamatov A., Almamatova Sh. Frazeologik transpozisiya va uni o'rganish haqida. Uslubshunoslik va frazeologizmning dolzarb mummolari. Ilmiy-nazariy konfirensiya materiallari. - Samarqand. 2007. 68-70 b.
3. Mamatov A. O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari. - T.: O'TA. 2001. № 3.
4. Merriam-Webster's Collegiate Dictionary, 11th Edition, Jacketed Hardcover, Indexed, 2020 Copyright 11th Edition by Merriam-Webster
5. Yo'ldoshev B. Frazeologizmlarning adabiy til normasi munosabatiga doir. - T.: O'TA. 1992. 3-4 son. 37-42 b.
6. Akram o'g'li, U. U. (2024). Literary Significance of Number Archetypes. Buletin Antropologi Indonesia, 1(2), 7-7.



7. Akram o'g'li, U. U. (2024). THE IMPORTANCE OF ARCHETYPE STUDIES IN LITERATURE. XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYALAR, 1(1), 282-286.
8. Akram o'g'li, U. U. NEGATIVE REPRESENTATION OF WHITE COLOR ARCHETYPE IN "HARRY POTTER AND THE GOBLET OF FIRE".
9. Akram o'g'li, U. U. SIGNIFICANT FEATURES OF COLOUR ARCHETYPES IN ENGLISH LITERATURE.
10. Akram o'g'li, U. U., & Sohیب o'g'li, X. N. (2023). Literary analysis of the distinctive features of archetypes and metaphors. Journal of innovations in scientific and educational research, 6(3), 10-16.
11. Akram o'g'li, U. U., & Raximovna, S. Z. (2022). THE SYMBOL OF MIRROR IN ENGLISH CHILDREN'S LITERATURE AND ITS FANTASTIC FEATURES. Евразийский журнал академических исследований, 2(2), 70-74.
12. Akram o'g'li, U. U., Sohیب o'g'li, X. N., & O'ktamovna, Y. H. (2022). THE IMPORTANCE OF RIDDLES, PROVERBS AND TONGUE TWISTERS IN UZBEK CHILDREN'S LITERATURE. Евразийский журнал академических исследований, 2(2), 75-77.
13. Rakhimovna, S. Z., & Akram o'g'li, U. U. UDC: 82.091 THE DEVELOPMENT OF ENGLISH CHILDREN'S LITERATURE AND ITS REPRESENTATIVES. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY, 29.
14. Sohیب o'g'li, X. N., & Akram o'g'li, U. U. (2022). HISTORY OF UZBEK FOLKLORE GAMES AND THEIR PLACE IN CHILDREN'S LIVES. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2(2), 403-408.
15. Umarov, U. (2023). ANALYSIS OF GOTHIC GENRE ELEMENTS IN THE WORKS OF ENGLISH CHILDREN'S LITERATURE. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42).
16. Umarov, U. (2023). Characteristic features of hero archetype in the example of Harry Potter. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42).



17. Umarov, U. (2023). PLANTS SYMBOLIZING HUMAN CHARACTER AND APPEARANCE IN THE XX TH CENTURY UZBEK POETRY. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42).
18. Umarov, U. (2023). REALISM ELEMENTS IN THE NOVEL" A FAREWELL TO ARMS" BY ERNEST HEMINGWAY. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42).
19. Umarov, U. (2023). THE DEVELOPMENT OF UZBEK CHILDREN'S LITERATURE AS A SPECIAL LITERATURE AND ITS FEATURES. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42).
20. Umarov, U. (2023). The significant role of archetypes in children's education. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 42(42).